

Toshkent viloyati
tomonidan 2022-yil 12 noyabrda
413 -son reyestr raqami bilan
№275240

“O‘zbekiston metallurgiya kombinati”
aksiyadorlik jamiyatining 2022-yil
16-sentabrdagi Kuzatuv kengashi majlisi
qarori bilan

«RO‘YXATGA OLINGAN»



QXM duplikat
Muqimov, Y. Muqimov



«TASDIQLANGAN»

“O‘zbekiston metallurgiya kombinati”
aksiyadorlik jamiyati
USTAVI

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Ustav O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (matn davomida – Qonun) va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

2. "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati (matn davomida – Jamiyat) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-martdagi 159-son qarori bilan davlat korxonasi mulkini qayta tashkil etish yo'li bilan ta'ris etilgan. Jamiyat "O'zbekiston metallurgiya zavodi", "Shirin mashinasozlik zavodi", Xo'jalik hisobidagi "Ikkilamchiqorametall" korxonalar boshqarmasining huquqiy vorisi hisoblanadi va ilgari tuzilgan barcha shartnomalar hamda majburiyatlar bo'yicha mas'uliyatni o'ziga oladi.

3. Jamiyat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Qonun va "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq olib boradi.

4. Jamiyatning to'liq firma nomi:

4.1. O'zbek tilida:

lotin yozuvida: "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati;

kirill yozuvida: "Ўзбекистон металлургия комбинати" акциядорлик жамияти.

4.2. Rus tilida: Акционерное общество "Узбекский металлургический комбинат".

5. Jamiyatning qisqartirilgan nomi:

5.1. O'zbek tilida:

lotin yozuvida: "O'zmetkombinat" AJ;

kirill yozuvida: "Ўзметкомбинат" АЖ.

5.2. Rus tilida: АО "Узметкомбинат".

6. **Jamiyatning manzili:** O'zbekiston Respublikasi, 110502, Toshkent viloyati, Bekobod shahri, Sirdaryo ko'chasi, 1-uy.

7. **Jamiyatning elektron pochta manzili:** info@uzbeksteel.uz

8. **Jamiyatning rasmiy korporativ veb-sayti:** www.uzbeksteel.uz

II. JAMIYATNING HUQUQIY HOLATI, JAVOBGARLIGI

9. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan, o'zining ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi, hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

10. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi va faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi.

11. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

12. Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko'rsatilgan yumaloq muhrga ega bo'lishi lozim. Muhrda bir vaqtning o'zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

13. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

14. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

15. Aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

16. Aksiyalarning haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.

17. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

18. Agar Jamiyatning bankrotligi Jamiyat uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan aksiyador sifatida ish yuritayotgan shaxsning g'ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, Jamiyatning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda, mazkur aksiyadorning zimmasiga Jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Aksiyador majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ushbu Ustavda bu huquq nazarda tutilgan taqdirdagina ega bo'ladi.

19. Jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan aksiyador Jamiyat muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida bankrot bo'lishini oldindan bila turib, ushbu huquqidan Jamiyat tomonidan shunday harakat amalga oshirilishi uchun foydalangan taqdirdagina Jamiyatning bankrotligi aksiyadorning harakatlari tufayli yuzaga kelgan deb hisoblanadi.

20. Davlat va uning organlari Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, xuddi shuningdek Jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

III. JAMIYAT FAOLIYATINING SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI) VA MAQSADI

21. Jamiyat tijorat tashkiloti bo'lib, uning asosiy maqsadi xo'jalik hisobida va o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash, bozorni xalq iste'mol mollari bilan to'ldirish, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni xalq etish hamda jismoniy va yuridik shaxslarning ishlab chiqarish mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qoniqtirish tamoyillari asosida moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan foyda olishdir.

22. Jamiyatning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat:

- qora metall parchalari va chiqindilarini tayyorlash (xarid qilish) va ularni qayta ishlash;
- qora metallar prokati va boshqa metall mahsulotlari ishlab chiqarish;
- sirlangan idishlar va boshqa xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish va sotish.

23. Jamiyatning faoliyati quyidagilardan iborat:

- mahalliy xom-ashyo manbalaridan, ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanib, ekologik toza texnologiya asosida o'z mahsulotlarini va xalq iste'moli mollari, shuningdek shlak va boshqa metallurgiya ishlab chiqarish chiqindilaridan mahsulotlar tayyorlash va sotish;

- tovar va boshqa mahsulotlarni sotish va xarid qilish, savdo-vositachilik, savdo-xarid faoliyatini amalga oshirish;

- aholi va korxonalar, muassasa va tashkilotlarga turli xil shakl va usullarda pullik xizmat ko'rsatish;

- aholi va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan transport xizmatlarini amalga oshirish;

- turli iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan nostandart mahsulotlarni ishlab chiqarish, shuningdek do'konlar shaxobchasi orqali na'munalni firma savdosini tashkil etish;

- jismoniy va yuridik shaxslarga, ta'mirlash, sozlash xizmatlarini amalga oshirish, ishlab chiqarish, uy-joy va kommunal qurilish ishlarini bajarish;

- ko'p nusxali gazetalarni chop etish, teleko'rsatuvlar tayyorlash va ko'rsatuvlarni namoyish etish;

- loyiha - smeta hujjatlarini tuzish;

- loyiha-qidiruv ishlarini amalga oshirish;
- ichki foydalanish uchun pas va o'rta bosimdagi gaz quvurlarini loyihalashtirish;
- texnologik ehtiyojlari uchun o'rta va past bosimdagi gazdan foydalanuvchi uskunalari uchun tabiiy gazni iste'mol qilish bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish.

24. Jamiyat o'z mablag'larini ishtirokchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga, mablag'lari va texnik manbalarini birlashtirgan holda ishlab chiqarishni oshirishga, aholi va ishlab chiqarish texnikasini ish bilan ta'minlashda yordam beradi, metallurgiya sanoati va xalq xo'jaligining boshqa sohasida xo'jalik yuritishning yangi usullarini, fan va texnika yutuqlarini joriy qilishga yo'naltiradi.

25. Jamiyat mazkur hududning ekologik holatini hisobga olgan holda va ta'luqli organlari bilan kelishilgan holda, shuningdek shu hududda yashovchi aholining manfaatlarini va ijtimoiy oqibatlarini hisobga olgan holda o'z faoliyatini tashkil etadi.

26. Jamiyat qonunchilikda belgilangan boshqa faoliyat turlarini o'rnatilgan tartibda amalga oshirishi mumkin.

IV. JAMIYAT USTAV KAPITALINING MIQDORI

27. Jamiyatning ustav kapitali aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi.

28. Jamiyat ustav kapitalining miqdori 2 332 744 555 000 (ikki trillion uch yuz o'ttiz ikki milliard yetti yuz qirq to'rt million besh yuz ellik besh ming) so'mdan iborat bo'lib, nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 466 548 911 (to'rt yuz oltmish olti million besh yuz qirq sakkiz ming to'qqiz yuz o'n bir) dona egasi yozilgan aksiyalarga bo'lingan.

29. Jamiyat tomonidan quyidagi turdagi aksiyalar joylashtirilgan:

- nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 2 282 891 455 000 (ikki trillion ikki yuz sakson ikki milliard sakkiz yuz to'qson bir million to'rt yuz ellik besh ming) so'mlik 456 578 291 (to'rt yuz ellik olti million besh yuz yetmish sakkiz ming ikki yuz to'qson bir) dona nomi yozilgan oddiy hujjatsiz aksiyalar;

- nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 49 853 100 000 (qirq to'qqiz milliard sakkiz yuz ellik uch million yuz ming) so'mlik 9 970 620 (to'qqiz million to'qqiz yuz yetmish ming olti yuz yigirma) dona nomi yozilgan hujjatsiz imtiyozli aksiyalar.

V. JAMIYATNING USTAV KAPITALINI KO'PAYTIRISH

30. Jamiyatning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

31. Qo'shimcha aksiyalar Jamiyat tomonidan ushbu Ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtiriladi.

32. Jamiyat ustav kapitalini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalar miqdori - nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 748 066 889 (yetti yuz qirq sakkiz million oltmish olti ming sakkiz yuz sakson to'qqiz) dona oddiy va 250 000 000 (ikki yuz ellik million) dona imtiyozli aksiyalardan iborat.

33. Ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish (aksiyalarning birja va uyushgan birjadan tashqari bozorga chiqarish) narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi, amalga oshmagan deb topish ulushi va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.

34. Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq va yopiq obuna usullari bilan joylashtiriladi.

35. Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

36. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda ularni imtiyozli olish huquqiga ega.

37. Imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risidagi qaror, shuningdek bunday qarorning amal qilish muddati haqidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi mumkin. Bunday qarorning amal qilish muddati ushbu qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran bir yildan ortiq bo'lishi mumkin emas.

38. Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi Jamiyat aksiyadorlari reyestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.

39. Qo'shimcha chiqarilgan aksiyalar bozor qiymatida joylashtiriladi. Aksiyalarni birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif etish yo'li bilan aksiyalarni taklif etish narxi aksiyalarni ommaviy taklifi tashkilotchisi (anderrayter) tomonidan belgilanadi.

40. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan, aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozorga chiqarish) narxi qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar konyunkturasi kelib chiqqan holda belgilanadi. Jamiyatning ustav kapitali ko'paytirilayotganda Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

41. Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga Jamiyat ustav kapitalidagi davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to'g'risidagi qaror Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining kamida uchdan ikki qismi egalari bo'lgan aksiyadorlarning (davlatdan tashqari) roziligi mavjud bo'lgan taqdirda, aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

VI. JAMIYATNING USTAV KAPITALINI KAMAYTIRISH

42. Jamiyatning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

43. Agar ustav kapitalini kamaytirish natijasida uning miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdoridan kamayib ketsa, Jamiyat ustav kapitalini kamaytirishga haqli emas.

44. Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav kapitalni kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

VII. JAMIYAT AKSIYALARINING TURLARI VA ULAR BO'YICHA DIVIDEND TO'LASH TARTIBI

45. Jamiyatning aksiyalari oddiy va imtiyozli bo'lib, hujjatsiz shaklda hisobi yuritiladi. Aksiyalarga egalik huquqi depo-hisob varag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

46. Imtiyozli aksiyalar egalari Jamiyat tugatilgan taqdirda uning mulklari taqsimlanayotgan paytda oddiy aksiya egalari o'rtasida mulk taqsimoti amalga oshirilgunga qadar o'z aksiyalarining nominal qiymatini oladilar.

47. Jamiyat o'zi joylashtirgan imtiyozli aksiyalarni olish narxi ularning bozor qiymatiga muvofiq belgilanadi.

48. Dividendlar Jamiyatning Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Jamiyatning buning uchun maxsus mo'ljallangan fondlari hisobidan ham to'lanishi mumkin. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

49. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin. Jamiyatning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlarni qimmatli qog'ozlar bilan to'lashga yo'l qo'yilmaydi.

50. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Imtiyozli aksiya o'z egasiga har yili bir dona aksiya nominal qiymatining 6 foizi miqdorida birinchi navbatda dividend olish huquqini beradi.

51. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, olti oyi, to'qqiz oyi kunlari bo'yicha dividendlarni hisoblab chiqarish va to'lash huquqiga ega (oraliq dividendlar) modiy yil yakunlari bo'yicha dividendlar miqdori yakuniy hisoblab chiqarilgan holda. Oraliq dividendlarni to'lash to'g'risidagi qaror (birinchi chorak, olti oy va to'qqiz oy) dividendlar miqdori, ularni to'lash shakli va tartibi dividendlar miqdori, ularni to'lash shakli va tartibi dividendlar siyosati bilan belgilangan. To'lagan oraliq dividendlarni to'lash to'g'risida qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobot ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy xisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan kundan e'tibordan oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.

VIII. JAMIYATNING ZAXIRA FONDI

52. Jamiyat sof foyda xisobidan zaxira fondini hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aniqlanadigan, Jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa fondlarni tashkil etadi.

53. Jamiyatning zaxira fondi, boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

54. Jamiyat ustav kapitalining 15 foizdan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondi tuziladi. Zaxira fondiga belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan 5 foiz miqdorida ajratmalar o'tkazadi.

55. Zaxira fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, sof foydadan majburiy ajratmalardan tiklanadi.

IX. JAMIYAT BOSHQARUVINING TUZILMASI

56. Jamiyat boshqaruv organlari:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;
- Kuzatuv kengashi;
- Ijroiya organi (Boshqaruv va uning raisi).

X. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI

57. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

58. Jamiyat har yili aksiyadorlarning yillik (navbatdagi) umumiy yig'ilishini o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi yil tugaganidan keyingi yilning o'ttizinchi iyun sanasida o'tkaziladi.

59. Jamiyatning bir foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a'ziligiga ularning nomzodini (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega. Bunday takliflar moliya yili tugaganidan keyin 90-kundan kechiktirmay taqdim etilishi lozim.

60. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida quyidagi masalalar ko'riladi:

- Kuzatuv kengashini saylash;
- Taftish komissiyasini saylash;
- Jamiyatning Ijroiya organi rahbari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish;
- Jamiyatning yillik hisoboti va biznes-rejasi ijrosi bo'yicha hisobot;
- Kuzatuv kengashi va Ijroiya organining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari;
- foyda va zararlarini taqsimlash;
- Jamiyat Kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchisining) xulosalarini eshitish.

Yig'ilishda boshqa masalalar ham ko'rib chiqilishi mumkin.

61. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

62. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

63. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash, Jamiyat Ustaviga Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bundan mustasno;
- Jamiyatni qayta tashkil etish;
- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- Kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- ustav kapitalini kamaytirish;
- Jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarini sotib olish;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, Jamiyatning ijroiya organi rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- Taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek, taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;
- Jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
- Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;

- Jamiyat Kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o‘z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchisining) xulosalarini eshitish;

- Imtiyozli huquqni qo‘llamaslik to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan qarorlar qabul qilish;

- Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining reglamentini tasdiqlash;

- Aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

- O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik Jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuning 8-bobida nazarda tutilgan hollarda balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig‘ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilish;

- O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik Jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuning 9-bobida nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning affillangan shaxsi bilan bitimlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

- Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olish to‘g‘risida qaror qabul qilish va xabarni oshkor qilish shaklini tasdiqlash;

- Jamiyatning boshqaruv organlari to‘g‘risidagi hamda ichki nazorat, dividend siyosati, manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarini tasdiqlash;

- Mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes-jarayonlar va loyihalarning Jamiyatning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning joriy xo‘jalik faoliyatiga ta’luqli bitimlarni belgilash;

- Sanoq komissiyasiga amaliy ko‘mak ko‘rsatish yoki uning funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspertlarni jalb etish (masalan, investisiya maslahatchisi yoki qimmatli qog‘ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisi) tartibini belgilash (tasdiqlash);

- Jamiyat mablag‘lari hisobidan minoritar aksiyadorlar qo‘mitasini saqlash xarajatini qoplash (minoritar aksiyadorlik qo‘mitasi tuzilgan taqdirda) tartibini belgilash (tasdiqlash);

- Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida hisobot beruvchi Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari ma’ruzalari (hisobotlari) shakli va mazmuniga bo‘lgan talablarni, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi davomiyligini belgilash;

- Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

64. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

65. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda Jamiyat korporativ veb-saytida va Korporativ axborot yagona portalida joylashtiriladi. Agar Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlari fond birjasining kotirovka varag‘iga kiritilgan bo‘lsa, mazkur qarorlar birjaning veb-saytida ham joylashtiriladi.

66. Aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlar ovoz berishda birgalikdagi pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimini tuzishi mumkin.

67. Jamiyatning minoritar aksiyadorlari hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo‘llash yo‘li bilan Jamiyat boshqaruv organi faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi lozim.

68. Jamiyat Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi Jamiyatning "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi Nizom asosida chaqiriladi va o'tkaziladi.

XI. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI

69. Jamiyat Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga ta'luqli masalalar bundan mustasno.

70. Jamiyat Kuzatuv kengashining azolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yillik muddatga saylanadilar. Jamiyat Kuzatuv kengashi azolarining soni 9 kishidan iborat.

Korporativ boshqaruv kodeksida aks ettirilgan mustaqil a'zo mezonlariga muvofiq bo'lgan Kuzatuv kengashining kamida bir nafar (ammo Ustavda ko'zda tutilgan Kuzatuv kengashi a'zolari sonining 15 foizidan kam bo'lmagan) a'zosi –yirik aksiyadorlar tomonidan kelishilgan holda tavsiya etiladi va saylanadi. Agar Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi tavsiya etilmasa va saylanmasa yoki Korporativ boshqaruv kodeksining boshqa tavsiyalariga rioya etilmasa Jamiyat rioya etilmaslik sabablari to'liq oshkor etadi.

71. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatning biznes-rejasi ko'rsatkichlari bajarilishi, shuningdek, rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash, o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish va ishtirok etish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

- O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasi birinchi qismining 2-xatboshida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

- Mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

- Jamiyatning ijroiya organi a'zolarini (raisdan tashqari) saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- Jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash, shuningdek ularga to'lanadigan ustamalar, mukofot puli va boshqa moddiy rag'batlantirish miqdorlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.07.2015 yildagi 207 – sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risidagi qarori bilan belgilangan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlariga bog'lagan holda belgilash;

- Korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

- Jamiyatning yillik biznes-rejasini joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay tasdiqlash;

- Biznes-rejaga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish;

- Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

- Jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni

ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- Auditorlik tekshiruvini, shu jumladan xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlarning xalqaro audit standartlariga muvofiq auditorlik tekshiruvidan o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilish;

- Auditorlik tashkilotini va uning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini belgilash haqida qaror qabul qilish;

- Taftish komissiyasi a'zolariga (taftishchisiga) to'lanadigan haq va kompensasiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;

- Dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

- Zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

- Filiallarni tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

- Sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish (ular aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyati shakllarida tuziladi);

- Qonunda belgilangan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va Jamiyat affillangan shaxslari bilan (manfaatdorlik) bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

- Korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek Jamiyat Ustaviga Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

- Aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- Qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Kuzatuv kengashi qoshida Kuzatuv kengashi, ijroiya organlari a'zolari, Jamiyat xodimlari va jalb etilgan ekspertlar (tegishli soha mutaxassislari, soha oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari va boshqalar) dan iborat tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish va boshqa masalalar bo'yicha qo'mitalar (ishchi guruhlari) tashkil etish;

- Jamiyat asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk ob'yektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik Jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish;

- mulkni begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmini, Jamiyat va uning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarni (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) ko'rib chiqish;

- Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

72. Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

73. Kuzatuv kengashining raisi kengash a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Kuzatuv kengashi o'z raisini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

74. Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, boshqaruv a'zolari bilan mehnat shartnomasini imzolaydi.

75. Kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini kengash a'zolaridan biri amalga oshiradi.

76. Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi va o'tkaziladi.

Jamiyatning 1 foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari Kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.

77. Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilikda boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kengashning boshqa a'zosi berishiga haqli emas. Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, kengash raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

78. Majlisda Kuzatuv kengashi a'zolari video va audio uskunalar orqali konferensiya aloqasi bo'yicha ishtirok etishi mumkin, bunda ularning ovozlari qaror qabul qilish uchun sirdan berilgan deb hisoblanmaydi.

79. Kuzatuv kengashi va uning raisi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim. Ular qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq Jamiyat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

80. Kuzatuv kengashi mazkur Ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom asosida ish olib boradi.

XII. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI

81. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik boshqaruv (soni 9 kishini tashkil etadi) va uning raisi (Bosh direktor) tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv vakolatiga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

82. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Jamiyat ijroiya organining vakolatlari shartnoma bo'yicha tijorat tashkilotiga (ishonchli boshqaruvchiga) berilishi mumkin. Tuziladigan shartnomaning shartlari, Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

83. Boshqaruv raisi – Bosh direktor Jamiyatning kundalik faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat Ustavi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

84. Boshqaruv raisi – Bosh direktor Qonun va mazkur Ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlari bajarilishini tashkil etadi va ularga hisobot beradi.

85. Boshqaruv raisi – Bosh direktor aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yilga lekin ketma-ket ikki martadan ko'p bo'lmagan muddatga saylanadi (tayinlanadi). U bilan mehnat shartnomasini Jamiyat nomidan Kuzatuv kengashi raisi imzolaydi.

86. Boshqaruv a'zolari Kuzatuv kengashi tomonidan saylanadi (tayinlanadi). Ular bilan mehnat shartnomasi Jamiyat nomidan Boshqaruv raisi – Bosh direktor imzolaydi.

87. Boshqaruv raisi – Bosh direktor va a'zolarini tayinlash to'g'risidagi qaror, odatda, xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinadi.

88. Aksiyadorlar vakili sifatida ishtirok etayotgan ijroiya organi a'zolari ijroiya organiga a'zolar saylash masalasida ovoz berishda ishtirok etmaydi.

89. Jamiyat Boshqaruvi qonunchilikda belgilangan tartib va hollarda xomiy va xayrli yordam ko'rsatishga haqlidir.

90. Boshqaruv vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Yuridik va jismoniy shaxslarga homiylik va moliyaviy yordam ko'rsatish va bu yordamning miqdorini belgilash;

- Jamiyat tuzilmalari rahbarlari hisobotlarini har chorak yakuni bo'yicha eshitish.

91. Boshqaruv raisi – Bosh direktorning vakolatiga quyidagilar kiradi:

- mazkur Ustav va Kuzatuv kengashi tomonidan o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq Jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;

- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish va uning manfaatlarini himoya qilish;

- Jamiyat nomidan bitimlar tuzish;

- Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitimlar bo'yicha qaror qabul qilish, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanadan oldingi hisobot sanasiga tuzilgan moliyaviy hisobot bo'yicha jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 foizigacha tashkil etsa, aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno;

- Kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etish;

- Jamiyat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi, o'zgartiradi va bekor qiladi;

- xodimlar shartlarini tasdiqlash, xodimlarni (ishchilarni) ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash;

- Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni berish;

- Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;

- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;

- Jamiyatda buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etish, shu jumladan e'lon qilish maqsadida Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga transformatsiyasini ta'minlash;

- qonun hujjatlariga muvofiq Jamiyat faoliyatiga doir ma'lumotlarni oshkor qilish;

- yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;

- Jamiyat arxivi ishini tashkil etish va undagi hujjatlar butligini ta'minlash;

- amaldagi qonun hujjatlariga hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish;

- Jamiyat ijroiya apparati rahbarlari o'rtasida vakolatlarini va majburiyatlarni taqsimlaydi.

Xodimlar lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlaydi;

- qonunchilikda belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

92. Boshqaruv va uning raisi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim. Ular qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq Jamiyat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

93. Boshqaruv va uning raisi mazkur Ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Ijroiya organi to'g'risida"gi nizom asosida ish olib boradi.

XIII. JAMIYAT FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

94. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi taftish komissiyasini yil muddatga saylaydi. Jamiyat taftish komissiyasi 3 kishidan iborat.

95. Taftish komissiyasining talabiga binoan Boshqaruv raisi – Bosh direktor moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taftish komissiyasiga taqdim etishlari shart.

96. Taftish komissiyasi amaldagi qonunchilikka muvofiq aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab qilishga haqli.

97. Taftish komissiyasining a'zolari bir vaqtning o'zida Kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishlari, shuningdek Jamiyatning boshqaruv organlarida boshqa lavozimlarni egallashlari mumkin emas. Ayni bir shaxs ayni bir Jamiyatning taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

98. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish taftish komissiyasining, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko'ra yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra Jamiyat Kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

99. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra Jamiyatning taftish komissiyasi xulosa tuzadi, bu xulosada:

- Jamiyatning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga doir baho;

- Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborot ko'rsatilishi shart.

100. Taftish komissiyasining xulosasi mazmuniga qo'shimcha talablar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi.

101. Taftish komissiyasi Jamiyatda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va Jamiyat ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani har chorakda Kuzatuv kengashining majlisida va aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida eshitaladi.

102. Taftish komissiyasi mazkur Ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan "Jamiyat taftish komissiyasi to'g'risida"gi nizom asosida ish olib boradi va ularga belgilangan tartibda mukofot puli to'lanadi.

103. Jamiyat aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobarini tashkil etsa va (yoki) ohsa Jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati Jamiyatning Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'ladi.

104. Jamiyatning ichki audit xizmati Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, Jamiyat Ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

105. Ichki audit xizmati Jamiyatdagi ichki nazoratni, shu jumladan, 50 foizdan ziyod ulushi Jamiyatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

106. Jamiyatning ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

107. Jamiyatda Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lgan va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi Jamiyat korporativ maslahatchisi lavozimi joriy etiladi.

108. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi.

XIV. YAKUNIY QOIDALAR

109. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorlarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu Ustavga asosan hal qilinadi.

110. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

111. Mazkur Ustav va unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

“РЎЙХАТГА ОЛИНДИ”

Тошкент вилояти
Бекобод шаҳар
Давлат хизматлари маркази
томонидан
2022 йил “12” ноябрь 413 - рақам
1275240

“ТАСДИҚЛАНДИ”

“Ўзметкомбинат” АЖ Қўзғатув кенгашининг
2022 йил 16 сентябрдаги мажлиси қарори
билан

“Ўзметкомбинат” АЖ Уставига киритиладиган ўзгартиришлар

Амалдаги тахрир	Таклиф этилаётган тахрир
<p>28-bandi: Jamiyat ustav kapitalining miqdori 2 323 079 000 000 (ikki trillion uch yuz yigirma uch milliard yetmish to‘qqiz million) so‘mdan iborat bo‘lib, nominal qiymati 5 000 (besh ming) so‘m bo‘lgan 464 615 800 (to‘rt yuz oltmish to‘rt million olti yuz o‘n besh ming sakkiz yuz) dona egasi yozilgan aksiyalarga bo‘lingan.</p>	<p>28-bandi: Jamiyat ustav kapitalining miqdori 2 332 744 555 000 (ikki trillion uch yuz o‘ttiz ikki milliard yeti yuz qirq to‘rt million besh yuz ellik besh ming) so‘mdan iborat bo‘lib, nominal qiymati 5 000 (besh ming) so‘m bo‘lgan 466 548 911 (to‘rt yuz oltmish olti million besh yuz qirq sakkiz ming to‘qqiz yuz o‘n bir) dona egasi yozilgan aksiyalarga bo‘lingan.</p>
<p>29-bandi: Jamiyat tomonidan quyidagi turdagi aksiyalar joylashtirilgan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - nominal qiymati 5 000 (besh ming) so‘m bo‘lgan 2 273 225 900 000 (ikki trillion ikki yuz yetmish uch milliard ikki yuz yigirma besh million to‘qqiz yuz ming) so‘mlik 454 645 180 (to‘rt yuz ellik to‘rt million olti yuz qirq besh ming bir yuz sakson) dona nomi yozilgan oddiy hujjatsiz aksiyalar; - nominal qiymati 5 000 (besh ming) so‘m bo‘lgan 49 853 100 000 (qirq to‘qqiz milliard sakkiz yuz ellik uch million yuz ming) so‘mlik 9 970 620 (to‘qqiz million to‘qqiz yuz yetmish ming olti yuz yigirma) dona nomi yozilgan hujjatsiz imtiyozli aksiyalar. 	<p>29-bandi: Jamiyat tomonidan quyidagi turdagi aksiyalar joylashtirilgan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - nominal qiymati 5 000 (besh ming) so‘m bo‘lgan 2 282 891 455 000 (ikki trillion ikki yuz sakson ikki milliard sakkiz yuz toqson bir million to‘rt yuz ellik besh ming) so‘mlik 456 578 291 (to‘rt yuz ellik olti million besh yuz yetmish sakkiz ming ikki yuz to‘qson bir) dona nomi yozilgan oddiy hujjatsiz aksiyalar; - nominal qiymati 5 000 (besh ming) so‘m bo‘lgan 49 853 100 000 (qirq to‘qqiz milliard sakkiz yuz ellik uch million yuz ming) so‘mlik 9 970 620 (to‘qqiz million to‘qqiz yuz yetmish ming olti yuz yigirma) dona nomi yozilgan hujjatsiz imtiyozli aksiyalar.
<p>32-bandi: Jamiyat ustav kapitalini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo‘shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo‘lgan e‘lon qilingan aksiyalar miqdori - nominal qiymati 5 000 (besh ming) so‘m bo‘lgan 750 000 000 (yetti yuz ellik million) dona oddiy va 250 000 000 (ikki yuz ellik million) dona imtiyozli aksiyalardan iborat.</p>	<p>32-bandi: Jamiyat ustav kapitalini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo‘shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo‘lgan e‘lon qilingan aksiyalar miqdori - nominal qiymati 5 000 (besh ming) so‘m bo‘lgan 748 066 889 (yetti yuz qirq sakkiz million oltmish olti ming sakkiz yuz sakson to‘qqiz) dona oddiy va 250 000 000 (ikki yuz ellik million) dona imtiyozli aksiyalardan iborat.</p>